

## YOSHLARNI EKSTREMISTIK G'OYALAR TA'SIRIDAN SAQLASH VA ULARGA QARSHI G'OYAVIY, MA'NAVIY HAMDA HUQUQIY KURASHISH

Gizatulina Salima Nailevna

Ichki ishlar Vazirligi Buxoro akademik litseyi o'quvchisi

O'zbekiston terrorizm, ekstremizm va radikalizm mafkurasiga qarshi kurash borasida hamisha printsipial pozitsiyaga ega bo'lib kelgan. Bunday xavf-xatarlarga qarshi faqat kuch islatish usullari bilan emas, balki birinchi navbatda, ayniqsa yoshlar o'rtasida, z'o'ravonlikni keltirib chiqaradigan jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish lozim.

**Sh.Mirziyoyev**

### **Annotatsiya:**

Maqolada O'zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar, ulardan ba'zi bir mutaassib kuchlarning o'z buzg'unchilik maqsadlaridan foydalanib, g'o'r yoshlarni diniy ekstremizm va fundamentalizm g'oyalari ta'siriga olib kirayotganliklari yoritilgan. Shuningdek, yoshlarni ekstremistik g'oyalar ta'siridan saqlash va ularga qarshi g'oyaviy, ma'naviy hamda huquqiy kurashish yo'llari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** diniy ekstremizm, g'oya, jinoyatchilik, illat, xavf.

Zamonaviy jamiyatda jinoyatchilikning ko'payishi, ekstremistik kayfiyatning kuchayishi, an'anaviy qadriyatlarni yo'q qilish kabi ijtimoiy hodisalarga qarshi kurashish muammosi ayniqsa dolzarbdir. Ushbu salbiy tendentsiyalarning tarqalishi bilan bog'liq bo'lgan asosiy xavflardan biri ularning kirib borishidir. Avvalo, o'smirlar va yoshlar muhitida ular jamiyatning ijtimoiy va psixologik jihatdan eng kam himoyalangan qismi - bolalar va o'smirlarga ta'sir qiladi. Majruh taqdir, buzilgan oilalar, bevaqt o'limlar-bularning barchasi jamiyatimizda chuqur ildiz otgan ijtimoiy illatlar oqibatidir.



Mustaqilligimizning dastlabki yillarida O‘zbekiston ekstremistik va terroristik tahdidlarni o‘z «tana»sida his etdi. Mazkur davrda bir guruh ekstremistlar tomonidan mamlakatda siyosiy tuzumni o‘zgartirish, islom xalifaligi tuzish, davlatni shariat me‘yorlari asosida boshqarish kabi talablar qo‘yishdi. Ularning asosiy maqsadlari dinlararo bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikning poydevoriga putur yetkazish hamda ko‘p millatli jamiyatimizning barqaror va tinch rivojlanishiga tahdid solishga qaratilgan edi. Shu o‘rinda, ekstremistlar tomonidan hokimiyatni qurol bilan egallash kabi holatlar bo‘lgani hammamizga ayon.

Terroristik xurujlarning kuchayishi va mamlakatning barqaror rivojlanishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri tahdidlarning ortishi sharoitida radikal guruhlarni zararsizlantirish, shuningdek, terroristik harakatlar ishtirokchilariga nisbatan qat‘iy qonuniy choralar ko‘rildi. Bularning bari aholining xavfsizligini ta‘minlash va mamlakat taraqqiyoti uchun barqaror ijtimoiy-siyosiy sharoitlarni yaratishga qaratilgan edi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda bironta ham terroristik harakat amalga oshirilmaganiga qaramay, mamlakat fuqarolarining, ayniqsa yoshlarning Suriya, Iroq va Afg‘onistondagi jangovar harakatlardagi ishtiroki misol bo‘la oladi. Shu bilan birga, kelib chiqishi o‘zbekistonlik bo‘lgan shaxslarning AQSH, Shvetsiya va Turkiyada terroristik harakatlarni sodir etishi ham bu muammo yechimiga nisbatan yondashuvni yana qaytadan ko‘rib chiqishni, aholi va ayniqsa, yoshlar orasida diniy mutaassiblikka qarshi kurashish hamda profilaktik choralar samaradorligini oshirishga katta e‘tibor qaratish zarurligini ko‘rsatdi.

Shu munosabat bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zining yangi siyosiy yo‘nalishida inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, xavfsizlik, dinlararo totuvlik hamda bag‘rikenglikni ta‘minlashga katta e‘tibor bermoqda. Ushbu yo‘nalishdagi vazifalar 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida aniq aks ettirilgan.

Eng avvalo Prezidentimiz «Jaholatga qarshi ma‘rifat» g‘oyasi asosida zo‘ravonlik mafkurasi «virusi» tarqalishining oldini olish vazifasini qo‘ydi. Xususan, yoshlarda diniy-axloqiy ongni shakllantirish va ma‘rifat asosida ularni mafkuraviy tarbiyalash bu yo‘nalishning asosiy bo‘g‘iniga aylandi. Shu bilan bir qatorda, aholining, ayniqsa, yoshlarning bilim saviyasini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Respublikamiz yoshlarining ta‘lim olish imkoniyatlari kengaymoqda



va ta'lim sifati yaxshilanmoqda. Bu ham keng bilim va yuksak tafakkurga ega bo'lgan yoshlar tarkibini shakllantirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda xalqimizga xos insonparvarlik va kechirimlilik siyosatini ekstremistik g'oyalarga qarshi yo'naltirishga qaratilgan ishlar ko'lamini kengaytirish borasida bir qator tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, mamlakatimizda ekstremistik guruhlar aloqador deb hisoblangan 20 mingdan ziyod fuqarolar maxsus hisobdan chiqarildi va bunday ro'yxatlarni yuritish amaliyotidan butunlay voz kechildi. 2017 yildan to bugungi kungacha ekstremizm tufayli hukm qilingan 4 ming nafardan ortiq shaxslar afv etildi.

O'tgan davr mobaynida insonparvarlik tamoyilining huquqiy asoslari mustahkamlandi. Jumladan, 2018 yilning 19 sentyabrida «Terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi Prezident Farmoni e'lon qilindi. Mazkur Farmon ekstremistik guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lgan, o'z qilmishining qonunga xilofligini anglab yetgan va tuzalish yo'liga o'tgan fuqarolarga Vataniga, oilasi bag'riga, tinch hayotga qaytish imkonini berdi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad - mazkur toifadagi insonlar o'zlarini davlat himoyasi va g'amxo'rliqi ostida, to'laqonli fuqarolar sifatida his qilishi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. Boisi davlat hamda jamiyat uchun xavflilik darajasi uncha yuqori bo'lmagan fuqarolarni ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortish usulidan keng foydalanish o'zining aks ta'sirini berib, ularni yanada g'azablantirishga hamda davlatga qarshi harakat qilishga olib kelishi mumkin. Shuningdek, 2018 yilda «Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Unda mazkur sohadagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida ekstremizmning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, jumladan, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda ekstremizmga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish, shu bilan birga, uning yuzaga kelishiga imkon beruvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni bartaraf etish belgilab berilgan edi. Shuningdek, mamlakatda ekstremizmni keltirib chiqaruvchi omil va shart-sharoitlarga qarshi qaratilgan ishlarga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada ikki xil yo'nalishda, ya'ni





mafkuraviy hamda amaliy sa'y-harakatlarni o'z ichiga olgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmogda.

Qolaversa, ekstremistik g'oyalar ta'siriga eng ko'p tushuvchi toifa vakillari, ya'ni ayollar va yoshlar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratildi. Bunda ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilash, jinsi, millati hamda kelib chiqishidan qat'i nazar, teng imkoniyatlar yaratish, kamsitishga yo'l qo'ymaslik kabi yo'nalishlarda ishlar olib borilmogda. Eng asosiy maqsad-ekstremistik g'oyalar ta'siriga qayta tushishga moyil bo'lgan shaxslarni ham mafkuraviy, ham amaliy qo'llab-quvvatlash hamda ekstremistlarning ijtimoiy bazasini qisqartirish. Eng muhimi, fuqarolarni ushbu buzg'unchi mafkuraga moyil qiladigan sabab va sharoitlarga, jumladan, ijtimoiy tengsizlik, kamsitish, inson huquq hamda erkinliklarini buzishga qarshi kurashishdir. Quvonarlisi shuki, O'zbekistonda ekstremizmga qarshi kurashda olib borilayotgan sa'y-harakatlarni xalqaro tashkilotlar nafaqat e'tirof etmogda, balki o'rtaga tashlanayotgan tashabbuslarni ham qo'llab-quvvatlamogda.

Bugungi kunda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda aholini, ayniqsa, yosh avlodni turli yot oqimlar ta'siriga tushib qolishlariga yo'l qo'ymaslik, ularni internet orqali targ'ib qilinayotgan turli g'oyaviy va axborot xurujlaridan himoya qilish bo'yicha tadbirlar ko'lamini yanada kengaytirish, terrorizm va ekstremizm g'oyalariga qarshi yo'naltirilgan kompleks ilmiy tadqiqotlar va kitoblar tayyorlash va nashr etish maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Shundagina yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va bag'rikenglik muhitini asrash va uni kelajak avlodlarga ham yetkazish imkoniga ega bo'lamiz. Bunday yondashuv, shubhasiz, yaqin istiqbolda o'z natijasini beradi.

Xulosa qilib aytganda, biz yoshlarning ongu shuurini har qanday zararli mafkuralardan, g'oyalardan himoya qila olsak, odamlarga bugungi tinch va osuda hayotning qadriga yetishni o'rgata olsak, dunyoning ayrim mintaqalarida kuzatilayotgan urushlar, qonli to'qnashuvlar, vayronagarchiliklar, din niqobi ostida sodir etilayotgan vahshiyona harakatlardan o'z vaqtida ogoh eta olsak, dinimizni, yurtimizni turli buzg'unchi kuchlar adovatidan saqlagan bo'lamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.Mirziyoyev «Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda quramiz». Toshkent-O‘zbekiston-2016y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.07.2021 yildagi PF-6255-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.07.2017 yildagi PF-5106-son.
4. Karimov I. A., O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, T., 1997.
5. Karimov. I.A., «Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz». O‘zbekiston-1999 y.

